

O‘zbekistondagi islohotlar: inklyuziv rivojlanish va hamkorlikning yangi formulasi

Muallif: Kristin Lagard, XVJ boshqaruvchi direktori

O‘zbekiston Markaziy banki —Toshkent, O‘zbekiston —2019 yilning 17 may kuni

Kirish va asosiy mavzu

Xonumlar va janoblar, hayrli tong, assalomu aleykum!

Rais Nurmuratov, olihimmatli kirish so‘zlarinig uchun rahmat. Rais birinichi o‘rinbosari janob Ishmetov, iliq kutib olganingiz uchun tashakkur. Barchangizni ko‘rib turganimdan xursandman.

Kecha bu yerga kelishimdan oldin menga o‘zbeklarda “*Mehmon otangdan ulug’*”, degan mashhur maqol borligini aytishdi.

Yurtingiz mehmoni sifatida shuni ishonch bilan aytishim mumkinki, O‘zbekiston xalqi mehmondo‘stlik borasida dunyoda tengsiz. Xalqaro valyuta jamgarmasi sizlardan minnatdor. Shu o‘rinda mazkur go‘zal naqlda onaning o‘rni aytib o‘tilmaganiga e‘tibor berdim. Oy‘laymanki, onaning mavqei eng yuqori o‘rinda bo‘ladi va bu mavzuga hali qaytaman.

Albatta, O‘zbekistonga kelgan har bir odam mehmondo‘stlikdan tashqari yana bir narsa – bu yurtning *tarixi* haqida o‘ylaydi. **Deyarli ming yil davomida dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan bu o‘lka savdo va o‘zgarishlar markazi bo‘lib kelgan.** Aynan mana shu zaminda - Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg‘ona vodiysi va yon-atrofdagi ko‘plab maskanlardan o‘tgan Buyuk Ipak yo‘li oddiy savdo-sotiq yo‘lidan, butun dunyoning diqqatini jalb qiluvchi mo‘jizaga aylandi.

Savdo-sotiqqa erkinlik berilgani tufayli shaharlar gullab-yashnagan. Yetakchi olimlar, hunarmandlar, shoiru bastakorlar ushbu maskanni o‘z vatani deb bilgan. Shaharlar taraqqiyoti ortidan innovatsiyalar kirib kelgan. Xivada algebraning “otasi” Muhammad Al-Xorazmiy tavallud topgan. Ayrim zamonaviy yoshlarga algebra unchalik yoqmasa-da, men o‘z nutqimning mavzuini belgilashda aynan Xorazmiyning faoliyatidan ruhlendim va uni: “*O‘zbekiston xalqiga manfaat keltiradigan inklyuziv rivojlanish formulasini topish*”, deb nomladim.

O‘zbekistonning *qadimgi tarixi* bilan bir qatorda uning zamonaviy tarixidan ham muhim saboqlarni o‘rganishi mumkin. Oxirgi o‘n yilliklar davomida O‘zbekiston dunyodagi eng yopiq mamlakatlardan biri bo‘lib keldi va soni jadal o‘rib borayotgan mehnatga qobiliyatli aholini ish bilan ta‘minlashga qodir bo‘lgan xususiy sektorni yarata olmadi. **Oddiy qilib aytganda, O‘zbekistonning rivojlanish formulasi natija bermadi.**

Ayni paytda O‘zbekiston bu formulani o‘zgartirib, integratsiya va innovatsiya markaziga aylanishga yana bir bor harakat qilmoqda. Oxirgi ikki yil davomidagi islohotlar butun dunyoning nazariga tushdi. **Hozir aynann shu o‘zgarishlar to‘lqinidan unumli foydalanib, mamlakatni inklyuziv rivojlantirish yo‘liga olib chiqish imkoniyatiga egasiz.** Mazkur jarayonda O‘zbekistonni o‘z o‘rniga qaytarish, ya‘ni uni Markaziy Osiyoning taraqqiyot manbaiga aylantirishingiz mumkin.

Buni amalga oshirish uchun nima qilish kerak? **Algebra murojaat qilaylik.** Inklyuziv rivojlanish formulasida qanday **o'zgaruvchan kattaliklar** bo'lishi kerak?

Men O'zbekistondagi islohotlardan boshlab, e'tiboringizni **uchta asosiy o'zgaruvchan kattaliklarga** jalb qilmoqchiman: **sifatli investitsiyalarni oshirish, iqtisodiy va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash hamda korrupsiyani jilovlash.**

Formuladagi yana bir muhim omil - O'zbekistonning mintqa darajasidagi taraqqiyotni jadallashtirish borasidagi salohiyati.

I. O'zbekistonning yangi rivojlanish formulasi

a) Sifatli investitsiyalar hajmini oshirish

Birinchi o'zgaruvchi - bu sifatli investitsiyalar hajmini oshirish va ularni eng muhim sohalarga yo'naltirish.

Islohotlarning dastlabki to'lqinidan avval mamlakat resurslari O'zbekistondagi demografik o'zgarishlarga javob bera olmaydigan davlat korxonalariga investitsiya qilinardi.

Oxirgi o'ttiz yil davomida mehnatga qobiliyatli aholi soni jadal sur'atda o'sib kelmoqda. Bugun mamlakat **aholisining yarmini yoshi 30-dan kichik bo'lganlar tashkil etib, har yili ishchi kuchi safiga 600 mingdan ko'proq odam qo'shilmoqda.**¹Shu xonadagilarning aksariyati mazkur toifaga kiradi. Ammo, sizga ma'lumki, o'tgan yillarda qo'shimcha ish o'rinlari deyarli yaratilmadi.

Kerakli ta'lim va malakasi bo'lmagan odamlar, ayniqsa, yoshlarning ishsiz bo'lish ehtimoli yuqori.² Albatta, bu muammo, ammo ayni paytda ham imkoniyatdir. O'zbekistonning shiddatli va inklyuziv rivojlanishi uchun yo'llari ochiq.

Muammo yechimining bir qismi ta'lim va mehnat bozorini islohot qilish orqali malaka yetishmovchiligini kamaytirish. Mazkur yo'nalishda hukumat ijobiy ishlarni amalga oshirmoqda, jumladan, **mamlakatda Ta'lim sifatini baholash milliy markazi tashkil etildi.** Kasbiy dasturlarni takomillashtirish va kasbiy tayyorgarlik markazlarini qurish rejalashtirilmoqda.

Hukumat bu bilan kifoyalanayotgani yo'q. Oilalarga bola parvarishi va maktabgacha ta'lim borasida yordam berilmoqda. Moliyaviy texnologiya sohasiga ayol tadbirkorlar uchun mikrokreditlar ajratish bo'yicha loyihalar kirib kelmoqda.

Bularning bari hukumat Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030 yilgacha bo'lgan Barqaror rivojlanish maqsadlariga (BRM) erishish uchun dadil kirishganidan dalolat beradi. Bu maqsadlar rivojlanishning barqaror, adolatli va atrof-muhitga bezarar tamoyillarini ilgari suradi.

Mazkur islohotlar natijasida malakasi kengroq rivojlangan kadrlarni tayyorlash va korxonalarining umumiy samaradorligini yuksaltirish imkoniyati yaratiladi.

O‘z navbatida, o‘zgarishlar mamlakat uchun zarur bo‘lgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni olib keladi. **Ammo investitsiyalar eng raqobatbardosh va daromadli firmalarga yo‘naltiriladimi?** Bu savol O‘zbekistonda doim dolzarb bo‘lgan.

Buning javobi esa: ha — agar narxlar to‘g‘ri kelsa.

Sifatli investitsiyalar hajmini ko‘paytirishning eng muhim omili – **narxlarni erkinlashtirish**. Hukumat buni yaxshi tushunadi. 2018 yilning ikkinchi yarimida kam ta‘minlangan oilalar uchun tegishli oqibatlar qoplanilib non narxi erkinlashtirildi, subsidiyalar olib tashlandi va energiya narxlari ishlab chiqarish xarajatlariga moslashtirildi.

Boshlanishi juda yaxshi, va narxlarni to‘g‘rilash borasidagi choralar davom ettirilishi lozim. Istiqbolda bu islohotlar natijasida yuqori o‘shish sur‘atlari, maoshlarning oshishi va turmush tarzining yaxshilanishiga erishiladi.

Albatta, narxlar ko‘tarilganida inflatsiyani jilovlash va iqtisodiyotning muvozanatini ushlab turish qiyin bo‘lishi mumkin. Shu o‘rinda e‘tiboringizni ikkinchi o‘zgaruvchi — iqtisodiy va moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash masalasiga qaratmoqchiman.

b) Iqtisodiy va moliyaviy barqarorlik

Yuqori darajadagi inflatsiya O‘zbekistonning iqtisodiy farovonligi uchun doimiy xatarlardan biri bo‘lib kelmoqda. Islohotlardan avval mamlakatda inflatsiya darajasi yuqori bo‘lar, ammo u rasmiy hisobotlarda aks ettirilmas edi. Ayni paytda O‘zbekistonning eng katta banknotasi 100000 so‘mlik bo‘lib, bir necha yil avval u 5000 so‘mlik edi.

Hozirgi islohotlar davrida O‘zbekiston inflatsiyani jilovlash va narxlarni barqarorlashtirish imkoniyatiga ega.

Markaziy Bank mazkur muammo bilan bevosita kurashmoqda va inflatsiya ko‘rsatkichini bir raqamli son darajasiga tushirish niyatida. Hukumat kreditlar ko‘payishini boshqarishga e‘tibor bermoqda.

2018 yilda iqtisodiyotda *kreditlarning keskin o‘shishi* yuz berib, **ularning hajmi 50 foizga oshdi**. Mablag‘larning bir qismi ularga eng muhtoj bo‘lgan ta‘lim va infrastruktura sohaslarini moliyalashtirishga yo‘naltirildi. Ammo samarasiz investitsiyalarni ko‘paytiradigan bu kabi o‘shishning davom etishi oqibatda *kredit inqiroziga* olib kelishi mumkin.

Hukumat kreditlar o‘shishini me‘yorga solish choralari ko‘rayotganidan mamnunman. Maqsadlarga erishish jarayonida XVJ siz bilan birgalikda ishlashni davom etadi.

Shuningdek, **bank sektorini isloh qilishda** ham birga ishlashga tayyormiz. Bank tizimi xususiy egalik miqyosini kengaytirishdan foyda ko'rish aniq. Ayni paytda hukumat **tizimdagi jami aktivlarning 85 foizdan ko'prog'ini boshqarmoqda.**

Markaziy Bank mazkur masala naqadar jiddiy ekanini tushunadi va xatarlarni kamaytirish choralarini ko'rgan, jumladan, iste'mol kreditlarini berish tartibi qayta ko'rib chiqildi va intervensiya vositalari yangilandi.

Keyingi bosqich esa bank tizimini qayta qurish uchun yangi strategiya ishlab chiqishdan iborat bo'ladi.

Agar tegishli tarzda ishlab chiqarilsa, mazkur strategiya davlat investitsiyalari bilan xususiy investitsiyalar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlab beradi. **Bu - davlat boshqaruvidagi rivojlanishdan bozor iqtisodiyotiga asoslangan rivojlanishga o'tish borasidagi choralarning muhim qismidir.**

Shunday qilib, formulaning ikkala tomonidagi o'zgaruvchan kattaliklarni ko'rib turibmiz.

Bir tomondan, yangi ish o'rinlarini yaratadigan va yangi imkoniyatlarni taqdim etadigan sifatli investitsiyalar hajmini oshirish zaruriyati bor. Ikkinchi tomondan, iqtisodiy va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash zaruriyati mavjud.

Bu formulada nima yetishmayapti? Uzluksiz sifatli boshqaruv. O'zbekistonda investitsiyalar korrupsiyaga zarba berilsagina samarali bo'ladi. Bu mening uchinchi o'zgaruvchimidir.

c) Korrupsiyaga qarshi choralarni kuchaytirish

Odamlar hukumatga ishonsagina, ta'lim, infrastruktura, soliq va moliyaviy siyosatda rivojlanish bo'ladi.

Korrupsiya odatiy holga aylansa, mamlakatning investorlarni jalb qilish va ish o'rinlarini yaratish borasidagi imkoniyatlari zaharlanadi. **Buni yoshlar hammadan yaxshi anglaydi.** Yaqinda o'tkazilgan global so'rovnomadan ma'lum bo'lishicha, yoshlar o'z mamlakatlarida ish o'rinlarini yaratish yoki ta'lim yetishmovchiligini emas, balki aynan korrupsiyani birinchi navbatda hal etilishi lozim bo'lgan masala, deb hisoblaydi.³ O'ylaymanki, bu yerdagilar ham mazkur fikrga qo'shiladi.

Menimcha bu juda o'rinli. Negaki **odamlar o'z kundalik hayotida duch keladigan aksariyat adolatsizliklarning ildizi korrupsiyaga borib taqaladi.**

Muammoning naqadar dolzarb ekaniligini nafaqat yoshlar anglaydi. O'zbekiston hukumati ham buni yaxshi tushunadi. Bu borada amalga oshirilayotgan choralar yuqori bahoga sazovor. Islohotlar jarayonida birinchilardan bo'lib "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi" qonun qabul qilindi.

Davlat boshqaruvini takomillashtirish, texnik ta'minotni yaxshilash va sudlar samarasini oshirish bo'yicha o'zgarishlar tatbiq etilmoqda.

Valyuta bozorini erkinlashtirish ham korrupsiyani kamaytirish yoʻlidagi yuqori samarali qadam boʻldi. Yaqinda oʻtkazilgan soʻrovnomaga koʻra, valyutalar kursining oʻzgarishi mamlakatdagi eng taʼsirchan islohot sifatida qayd etildi.⁴

Shaffoflik boʻlmasa, bu islohotlarning hech biri natija bermas edi. **Mamlakat tarixida ilk bor fuqarolar byudjetining chop etilishi muhim bosqich boʻldi. Byurokratiyani kamaytirish va soliqlarni samaraliroq va adolatli undirish** borasidagi choralar ham shular jumlasidan. Yaqinda bizning soliq-byudjet shaffoflikni baholashimiz oʻtkazilganda, Oʻzbekistonning budjet ochiq-oydinliq sohasida yutuqlari tan olindi. Oxirgi toʻqqiz oy davomida, mamlakat hukumati davlat mablagʻlar qanday sarflanishi boʻyicha qoʻproq maʼlumot berdi va soliq-byudjet xavf-xatarlarni muxokama qildi.

Ish endi boshlanyapti. Prezident Mirziyoyev oʻtgan yili BMTdagi nutqida aytganidek, yangi raqamli texnologiyalar hukumatga boʻlgan ishonchni tiklashga yordam berishi mumkin va yordam berishi kerak. Prezident oʻz vaʼdasida turmoqda. Oʻtgan yili Prezidentning virtual qabulxonasiga 2 000 000 dan ziyod murojaat kelib tushgan. Demak, qiziqish bor. Koʻpchilik bunga eʼtibor bermoqda.

Bu - Oʻzbekiston boshqalar uchun oʻrnak boʻla olishi va unda amalga oshirilayotgan ishlar Markaziy Osiyo taraqqiyotiga turtki berishi mumkinligini namoyish etadi. Shunday qilib, nutqimning yakuniy qismida Oʻzbekiston mintaqaga naqadar ijobiy taʼsir koʻrsatishi mumkinligiga toʻxtalib oʻtmoqchiman.

II. Mintaqa boʻylab taraqqiyot surʼatini jadallashtirish

Markaziy Osiyoning taraqqiyoti Oʻzbekistonning taraqqiyoti bilan chambarchas bogʻliq.

Bu tabiiy holat, negaki Oʻzbekiston mintaqada aholisi eng koʻp mamlakat boʻlib, Markaziy Osiyodagi barcha davlatlar bilan umumiy chegaraga ega. Keling, raqamlarga murojaat qilaylik.

Oʻzbekiston ochiqroq boʻlsa, mintaqadagi savdo keskin kuchayib ketishi mumkin. 2017-2018 yillar davomida bozorlarning ochilishi natijasida **qoʻshni mamlakatlar bilan tovar aylanish hajmi taxminan 50 foizga oshdi.**

Tashrif buyuruvchilar ham koʻpaygan. 2018 yilda Oʻzbekistonga kelgan xorijiy fuqarolar soni ikki barobar ortdi. Markaziy Osiyo uchun “Ipak yoʻli vizasi”ning joriy etilishi eʼlon qilingani ham kelgusi yillarda hamkorlik imkoniyatlari yanada kengayishini anglatadi.

Xuddi yuzlab yillar avval Buyuk Ipak yoʻlida yuz berganidek, savdo erkinlashtirilsa, sanoat ham rivojlanadi.

Ayni paytda oʻrnatilayotgan aloqalarni olaylik. Yangi yoʻllar qurilmoqda; Xitoy, Qozogʻiston, Turkmaniston va Oʻzbekistonni bogʻlaydigan temir yoʻl qurilishi tugallanmoqda; energiya tarmoqlari qurilmoqda.

Darhaqiqat, o'tgan yili Tojikiston bilan O'zbekiston o'rtasidagi elektr liniyalari tiklandi. Bugunga kelib, ikki davlat o'rtasidagi energiya oldi-sotdisi kundalik tarzda amalga oshirilmoqda.

Qo'shnilar bilan aloqalarning yaxshilanishi O'zbekistonning olis hududlaridagi farovonlikni yuksaltiradi. Ilgari rivojlanmay kelgan hududlar endi mintaqadagi iqtisodiy markazlarga aylanib, chegaraviy savdo-sotiq rivojiga turtki berishi mumkin.

Shu o'rinda yana bir bor tarixga murojaat qilish lozim. Qadimdan odamlar aynan mana shu *shahar* atrofida jamlangan, negaki u daryo yoqasidagi hosildor yer va voha edi. Savdo-sotiq natijasida u kichik bir manzilgohdan toshdan qurilgan yirik shaharga aylandi. Shu yirik toshlar tufayli *Toshkent* nomini oldi. Qissadan hissa nima? Kichik miqyosdagi mahsulot ayriboshlashdan turtki olgan jarayon vaqt o'tishi bilan qudratli mintaqaviy kuchning paydo bo'lishiga xizmat qilishi mumkin.

Istiqbolda bu - yaxshiroq ish o'rinlari va yuqori turmush tarzini ta'minlaydi, shu jumladan, ayollar uchun ham. Yodingizda bo'lsa, ona mavzusiga qaytaman degandim.

Ayni paytda, **O'zbekistonda ayollarning iqtisodiy faollik darajasi 50 foizdan biroz yuqori bo'lib, bu Markaziy Osiyodagi o'rtacha ko'rsatkichdir.**⁵ Ammo sog'liqni saqlash, ta'lim va ishga joylashish imkoniyatlari borasida erkaklar bilan ayollar orasida katta farq bor. Mintaqaviy aloqalarning yaxshilanishi natijasida O'zbekiston bir avlod hayoti davomida bir marta paydo bo'ladigan xotin-qizlar mavqeini oshirish imkoniyatini qo'lga kiritadi.

Markaziy Osiyoda inklyuziv rivojlanish mavzusidagi yangi tadqiqotimizdan ma'lum bo'lishicha, mamlakat erkaklar bilan ayollar teng huquqliligini ta'minlashni Yevropadagi rivojlanayotgan mamlakatlar darajasiga yetkaza olsa, unin yalpi ichki mahsuloti sezilarli tarzda o'sadi.⁶Bu, o'z navbatida, mintaqada ayollar duch kelayotgan iqtisodiy va yuridik to'siqlarni olib tashlash uchun muhim da'vat bo'lar edi.

Bu bo'lsa, O'zbekiston hamda mintaqaning taraqqiyot formulalarning uyg'unlashish va rivojlanish yollaridan bittasidir.

Xulosa

Xulosa o'rnida formulamiz asoslariga qaytmoqchiman. O'zbekiston alohida ahamiyatga ega mamlakatdir.

Bu zaminda Iskandar Zulqarnay o'z rafiqasi Roksanani topib, uni dunyodagi eng go'zal ayol sifatida ta'riflagan. Bu o'lkadan ilhom olgan Edgar Allen Po o'zining mashhur *Temurlang* she'rini yozib, unda baxtga erishish uchun beriladigan qurbonlar haqida so'z yuritgan. Va aynan mana shu o'lkada matematikaning yangi yo'nalishi dunyoga kelib, murakkab muammolarga o'zgacha yondashuvni boshlab bergan.

Eng gullagan davrlarida O'zbekiston Markaziy Osiyodagi taraqqiyot, imkoniyat va innovatsiyalar chorrahasida bo'lgan. Qorong'ilashgan davrlarida O'zbekiston dunyodan uzilib qolgan. Bugun esa mamlakat *yangi* formulani yechish arafasida turibdi. Siz to'g'ri yo'ldasiz. Agar muammolarga birgalikda yechim topsak, O'zbekistonga tashrif buyurganlar

faqatgina uning **tarixi emas**, balki O‘zbekistonning jo‘shqin, tinch va farovon **kelajagi** haqida fikr yuritadi.

Katta rahmat.

¹ O‘zbekiston mehnat vazirligi.

² XVJ IV-bob bo‘yicha O‘zbekistonga missiyasi, 2019 yil aprel oyi.

³[WEF Global Shapers Annual Survey 2017](#)

⁴ “O‘zbekiston fuqarolarini tinglab”. Jahon Banki guruhi. 2018 yil fevral oyi.

⁵ XVJ hisoboti. Kavkaz va Markaziy Osiyoda inklyuziv rivojlanishni ilgari surish. 2019 yil may oyi.

⁶*O’sha joyda.*